

10-10-2019

THE EVOLUTION OF THOSE WHO HAPPENED IN PHILOSOPHY

Obidxon Vaqqosovich Mamatov

Namangan davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi.

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Mamatov, Obidxon Vaqqosovich (2019) "THE EVOLUTION OF THOSE WHO HAPPENED IN PHILOSOPHY," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 10 , Article 39.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/39>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

THE EVOLUTION OF THOSE WHO HAPPENED IN PHILOSOPHY

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

FALSAFADA VORISLIK TUSHUNCHASINING EVOLYUTSIYASII

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

Namangan davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası mudiri, falsafa fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Maqolada vorislik tushunchasining mohiyati, uning falsafiy tafakkur jarayonida rivojlanib borishi, taraqqiyotda va bilish jarayonida tutgan o'rni, hamda metodologik ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Vorislik, taraqqiyot, aloqadorlik, qonuniyat, o'zgarish, bilish, metodologiya.

Аннотация: В статье рассматривается сущность понятия преемственности, эволюция данного понятия в истории философской мысли, место преемственности в процессе познания и в развитии объективной реальности. Также уделено внимание на методологическую сущность понятия преемственности.

Ключевые слова: преемственность, прогресс, взаимосвязь, закономерность, изменения, познания, методология.

Abstract: The article examines the essence of the concept of continuity, the evolution of this concept in the history of philosophical thought, the place of premium in the process of cognition and in the development of objective reality. Attention is also paid to the methodological essence of the concept of continuity.

Keywords: continuity, progress, interconnection, regularity, changes, cognition, methodology.

Taraqqiyotning zarur sharti bo'lgan vorislik tushunchasi falsafa tarixida o'zgarib takomillashib borgan.

Qadimgi grek faylasuflari vorislik tushunchasini alohida tadqiq etmagan bo'lsalarda, ular dunyodagi predmet, hodisalarning kelib chiqishini tushuntirishda o'tmish, hozir va kelajak o'rtasidagi bog'liqlikni e'tirof etganlar. Shuning uchun ham F.Yu.Ismoilov vorislik tushunchasining kelib chiqishida aynan qadimgi greklarning, xususan Aristotelning xizmatini ta'kidlab ko'rsatadi. «Tabiat harakat va o'zgarishning boshlanishi ekan, tadqiqot predmeti tabiat bo'lgani uchun harakat nima ekanligini noaniq qoldirish mumkin emas. Harakatni bilmaslik tabiatni bilmaslikka olib keladi»[1]. Ko'rinib turibdiki, bu yerda Aristotel vorislikni alohida muammo sifatida qarab chiqqan emas. Lekin F.Yu.Ismoilovning ta'kidlashicha, o'tmish hozir va kelajak o'rtasidagi vorislik munosabatini ifodalashda Aristotelning xizmati katta. Sharq uyg'onish davri faylasuflari vorislikning mohiyatiga yanada chuqurroq yetib borganlar. Ularda ham vorislik tushunchasi falsafiy kategoriya darajasiga ko'tarilgan bo'lmasada, uning mazmuni Ibn Sino, Beruniy, Forobiy kabi jahon falsafasi tarixida muhim o'rinni egallagan faylasuflarning fikrida yaqqol sezilib turadi. Jumladan: Forobiyning quyidagi fikri buni yorqin ifodalaydi: «...rahbar kelajak uchun rasm-rusum, yo'l-yo'riqlarni isloh qilishni lozim va foydali topsa, turmush taqozosiga qarab ularni o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishning

talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hyech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi»[2]. Forobiyning bu fikridan kelib chiqadi-ki, o'tmish va bugun o'rtasida ijobiy va salbiy aloqadorlik mavjud. Bu aloqadorlik shakli bugun biz vorislik deb atayotgan narsaning o'zidir. Forobiy bu fikri bilan vorislik muammosiga Aristotelga nisbatan juda yaqin keladi. Taraqqiyotning muhim sharti sifatida o'tmish va hozir o'rtasidagi, eski va yangi o'rtasidagi aloqadorlikni oladi. Shuningdek, Aristotel tabiat harakatini ob'ektiv jarayon sifatida olib qaraydi. Forobiy esa harakatni, ya'ni, taraqqiyotga yetaklovchi harakatni jamiyat sohasiga tadbiq etar ekan uni nafaqat ob'ektiv jarayon sifatida, balki ob'ektivlik bilan sub'ektivlikning dialektik birligi sifatida olib qaraydi. Jamiyatning rivojlanishida va uni isloh qilishda aniq sharoitlarni hisobga olishni ta'kidlab o'tadi, ya'ni rahbar o'tmishdan qolgan me'rosni «turmush taqozosiga qarab o'zgartiradi».

Forobiy bu fikri bilan jamiyat taraqqiyotini tushunishda Arastuga nisbatan ancha ilgari ketdi. U merosga vorislik asosida yondoshishga undash bilan birgalikda, bu me'rosning salbiy tomonlarini ulqitirib tashlashga chaqiradi.

Forobiy jamiyat taraqqiyotida shaxsning o'rniga juda katta baho beradi. Uning fikridan ko'rinib turibdiki, yetilgan ob'ektiv shart-sharoitlarni qaysi yo'nalishga burish shaxs faoliyatiga juda bog'liq. Demak, bu yerda ob'ektiv shart-sharoitlar zarur bo'lsa-da, yetarli emas, jamiyatning bundan keyingi taraqqiyoti shaxsning faoliyatiga, uning qanday inson ekanligiga, ya'ni, sub'ektiv omilga juda ham bog'liq bo'lib qoladi.

Forobiy garchi vorislik tushunchasini ishlatmagan bo'lsa-da, uning faqatgina yuqorida keltirilgan fikrining o'ziyoq, vorislik to'g'risidagi har qanday ta'riflarning mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

Vorislik tushunchasini birinchi bo'lib nemis faylasufi Hegel dialektik asosda tahlil qilib berdi. Hegel vorislikni inkorni inkor qonunining muhim elementi sifatida qarab chiqdi. Vorislikni Hegel umumiy aloqadorlik shakli sifatida ifodalaydi. Hegel inkorni inkor qonunini ifodalalar ekan, «olib tashlangan» va «ushlab qolingani» xususiyatlar o'rtasidagi munosabatni, ya'ni destruktiv va konstruktiv jarayonni dialektik tarzda ifodalab beradi. Gegelda «olib tashlash» tushunchasi butunlay «yo'qolib ketish» ma'nosida emas, balki yanada takomillashtirilgan formada namoyon bo'lishini ifodalaydi[3]. Vorislik tushunchasi dialektikaning eng umumiy va eng muhim kategoriyasi sifatida qaralmog'i lozim. Dialektikaning qaysi bir kategoriyasiga e'tibor bermaylik, bu yerda biz vorislik elementini uchratamiz: yakkalik, xususiylik va umumiylik, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif va x.k. jarayonlarda taraqqiyot vorislik asosida namoyon bo'lishini kuzatamiz. Hyech bo'lmaganda zaruriyat va tasodifni olib qaraylik. Tasodif bu – zaruriyat, faqatgina shunday zaruriyatki vorislik tufayli o'zini namoyon qiladi.

Masalan, paxta to'rt chanoq, besh chanoq va h.k.da ochiladi, lekin u necha chanoq bo'lishidan qat'iy nazar, u paxtadir. Paxtaning necha chanoqda ochilishi tasodif va bu tasodif uning paxta sifatida ochilishida, ya'ni zaruriyatda ifodalanadi. Dialektikaning barcha kategoriyalari predmet hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni, aloqadorlik bo'lganda ham rivojlanishni amalga oshiruvchi aloqadorlikni ifodalaydi. Vorislik kategoriyasi bu aloqadorlikni yanada yaqqolroq ifodalaydi. Vorislik taraqqiyotning turli xil bosqichlari o'rtasidagi aloqadorlik-ki, usiz umuman taraqqiyot jarayoni amalga oshmaydi. Shu nuqtai

nazardan biz vorislikni falsafiy genetika deb atashimiz mumkin. Vorislikning ahamiyati to'g'risida Kremyanskiy shunday deydi: «Vorislik nafaqat borliqning biologik shakli uchun katta ahamiyatga ega. Shuni eslatib o'tish kifoyaki, ichki vorisliksiz umuman takomillashib boruvchi taraqqiyotning bo'lishi mumkin emas».[4]

Vorislik eski va yangi o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalashi bilan birga, taraqqiyotning yo'nalishini ham belgilab beradi. Vorislikning xarakteriga ko'ra taraqqiyot progressiv yoki regressiv bo'lishi mumkin. Progressiv va regressiv tushunchalarini taraqqiyotning turli darajalari ifodalagani uchun shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bir xil darajadagi jarayonda vorislik bo'lmaydi. Vorislik aynan quyi va yuqori darajalar o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. O'zbek falsafiy adabiyotida vorislik tushunchasini chuqur tahlil qilib bergan A.A.Abdurahmonov va F.Yu.Ismoilov ham E.Ballerning vorislikka bergan ta'rifini keltirganlar. «Vorislik butunning sistema sifatida bir holatdan boshqa holatga o'tishidagi u yoki bu elementlarning (butunning) yoki alohida tomonlarining saqlanib qolishini ifodalovchi borliqning, shuningdek, bilishning turli xil taraqqiyot bosqichlari o'rtasidagi aloqadorlikdir. Hozirni o'tmish va kelajak bilan bog'lab, vorislik butunning barqarorligini ta'minlaydi».[5] F.Yu.Ismoilov Ballerning ta'rifidagi bir «kamchilikka» e'tiborini qaratadi: «Vorislik hodisa, jarayon va ob'ektlar o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Bu aloqasiz ular o'rtasidagi o'zaro shartlanganlik va o'zaro bog'liqlikning bo'lishi mumkin emas. Bu ob'ektiv aloqani gorizontaal vorislik ifodalaydi».[6] Mening nazarimda, gorizontaal vorislik tushunchasining ishlatilishi noo'rin. Yana E.A.Ballerning vorislikni turlarga bo'lishdagi mushohadasiga e'tiborni qaratmoqchiman: «Zero taraqqiyotning asosiy tiplari evolyusiya va sakrashdan (miqdor va sifat o'zgarishlaridan) iborat ekan, quyidagilarni ajratib ko'rsatish kerak: a) bir xil darajadagi vorislik; b) turli xil darajadagi vorislik.

Bir xil darajadagi vorislik miqdor o'zgarishlarida, ya'ni muayyan, nisbatan barqaror o'zgarishlarda kuzatiladi. Turli darajadagi o'zgarishlar sifat o'zgarishlari bilan bog'liq». Ballerning bu fikriga qo'shilish mumkin emas. «Bir xil darajada amalga oshuvchi jarayonlarda vorislik momenti yo'q. Chunki, bunda quyidan yuqoriga o'tish, taraqqiyot yo'q»[7] deganda F.Yu.Ismoilov juda to'g'ri fikrni ifodalaydi. Gorizontaal vorislik hamda, bir xil darajadagi vorislik tushunchasini kiritish bizning fikrimizcha dialektikadan chekinishni ifodalaydi. Baller vorislikka bergan ta'rifiga o'zi qarshi fikrni ifodalaydi. Vorislik turli xil taraqqiyot bosqichidagi aloqadorlikni ifodalalar ekan, bir xil darajadagi vorislikni, ya'ni sifat o'zgarishsiz amalga oshadigan vorislikni e'tirof etishi dialektikaga zid, bu birinchidan, ikkinchidan, vorislikni bunday turlarga ajratish uni inkorni inkor qonuni doirasidan chetga olib chiqadi. Ma'lumki, inkorni inkor qonuni taraqqiyotning spiralsimon xarakterga egaligini ifodalaydi. Bir xil darajadagi vorislik tushunchasi esa, taraqqiyotni to'g'ri chiziqdan iborat qilib qo'yadi. Miqdoriy o'zgarishlarda predmet yoki ob'ekt strukturasi saqlanib qolar ekan, Baller vorislik deb atagan narsa oddiy takrorlanishdan boshqa narsa emas. Takrorlanishni ma'lum bir nuqtada, ya'ni hodisa o'zini takomillashgan yuqori nuqtada takrorlasa, vorislik deb aytish mumkin. Lekin har qanday takrorlanish vorislik bo'lavermaydi. Bunday inkor jarayonida predmet, hodisa go'yoki o'z o'tmishiga qaytganday bo'ladi. Aslida esa eski o'zini yangida takrorlaydi, takrorlaganda ham yuqoriroq shaklda takrorlaydi. Go'yoki eskiga qaytishni e'tirof etish

ilgarilab boruvchi taraqqiyotning va vorislikning ahamiyatini pasaytirmaydi, balki, uning mohiyatini ochib beradi. «Vorilikni tahlil etmay turib, - deb yozadi A.A.Abdurahmonov, - taraqqiyot dialektikasini inkor va inkor etuvchi, eski va yangi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tushunib bo'lmaydi, zero har bir hodisa tafovut va ayniyat birligidan iborat. Har qanday buyum, har qaysi jarayon bir-biridan farq qiladi va shu bilan birgalikda umumiylikka ega. Ana shu umumiylikning mavjudligi vorislik uning xususiy ko'rinishi sifatida, shu hodisaning rivojlanishidagi takrorlanishni taqozo etadi».[8] Bundan vorislik biror-bir qonunga taalluqli kategoriya ekanligi emas, balki taraqqiyotning zarur sharti ekanligi, taraqqiyot qonunlari bir hodisada namoyon bo'lishi kelib chiqadi. Oddiy takrorlanish tafakkur rivojida katta ahamiyatga ega. Chunki, u predmet hodisalardagi umumiylikni ifodalaydi va tafakkurda yangi tushunchalarni vujudga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda vorislik taraqqiyotning muxim sharti sifatida xodisalarni taxlil qilishda muxim ahamiyat kasb etadi. O'tmish va kelajak, eski va yangi o'rtasidagi bog'lqlikning sabablarini yoritib berad. Shu nuqtai nazardan vorislik metodologik ahamiyatga egadir.

References:

1. Aristotel. Metafizika M.: 1937.-S.40
2. Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: 1993. –B. 189-190
3. Gegel. Nauka logiki. Sochineni T.1 M.: 1972. -S. 167-168.
4. Kremyanskiy V.I. K obsujdeniyu filosofskix voprosov genetiki.◎◎ Voprosi filosofii. 9◎1970.- S.133.
5. Beller E.A. Preemstvennost' v razvitii kul'turi. M.: 1969. -S.15
6. Ismailov F. YU. Preemstvennost v istoricheskom .protsesse. T. : 1999.- S.22
7. Ismailov F. YU. Preemstvennost v istoricheskom .protsesse. T. : 1999.- S.20.
8. Abduraxmonov.A.A. Problema preemstvennosti v razvitii duxovnoy kul'turi . T.:1990.- B.